



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Qurbanova Marg'uba

O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY
OMMALASHTIRISH VOSITALARI 13-15

Polvanov Azim Kuchkarovich

AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING
MANBALARDА YORITILISHI 16-21

Esnazarova Zulfiya Baltashovna

QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI
(1873 – 1924) 22-27

Axmedov Shaxzod Farxon o'g'li

O'ZBEKİSTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLİYATI TARİXİDAN
(1991 – 2017-yillar) 28-36

Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid

IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDİJONLIK RAHBAR
XODİMLARNING ISHTIROKİ 37-43

Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li

XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI 44-47

Asadova Ra'no Baymanovna

INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM
INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN
(CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE) 48-52

Esanova Nilufar

1991-2024 YILLARDA O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASINING SANOAT
SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA İSTIQBOLLAR
(HINDİSTON VA XİTOY MAMLAKATLARI MISOLIDA) 53-56

Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li

O'ZBEK XONLİKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON
O'RТАSIDAGI SIYOSIY ALOQALAR 57-64

Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li

HUDUDIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI
AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA 65-70

Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT
SANOATINING ROSSIYA IQTISODIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI 71-74

Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich

MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMİR
YO'LİNİNG QURILISHI VA UNİNG IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI 75-80

O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li

ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKİSTON SANOATI 81-88

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov</i>	
MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI:	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RIVOJLANISH	89-98
<i>Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi</i>	
MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:	
QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI?.....	99-104
<i>Xakkulov Akbar Uralovich</i>	
MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI	105-111
<i>Amonov Mehriddin Oromiddinovich</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:	
AVTOKRATIK RAHBARLAR	112-117
<i>Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna</i>	
HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI	
BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	118-125
<i>Yangiboyev Rustam Berdiyarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	126-131
<i>Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich</i>	
DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN	
FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK	
XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	132-143
<i>Eshqobilova Nigoraxon, Qurbanova Safiyabonu</i>	
DAVLAT BUDGETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING	
NAZARIY ASOSLARI	144-150
<i>Umronov Eldorbek Sodirovich</i>	
HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING	
EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI	151-159
<i>Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz</i>	
OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY	
IN UZBEKISTAN	160-172

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ahmedova Dilrabo</i>	
YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY	
JARAYONLARNING TA'SIRI	173-177
<i>Raxmatova Xolidaxon Xolikovna</i>	
NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING	
FALSAFIY TAHЛИLI	178-184
<i>Kurbanaliyev Ural Xatamovich</i>	
ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH	
DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI	185-189
<i>Soipova Mayjuda Karimjanovna</i>	
FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI	190-194

<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i>	
MA'NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI	195-198
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>	
VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI	199-204
<i>Olimova Moxinur Ravshanbek qizi</i>	
YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI	205-208
<i>Usarkulov Oybek</i>	
O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOIY AHAMIYATI	209-214
<i>Majidov Sodiqjon Sadullayevich</i>	
IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOIY FALSAFIY TALQINLAR	215-218
<i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i>	
КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА	219-226
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i>	
MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY- FALSAFIY OMILLARI	227-230
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI	231-235
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI	236-240
<i>Aslanov Said Karimovich</i>	
TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O'ZORO ALOQADORLIGI	241-244
<i>G'aniyev Elbek Abdizoitovich</i>	
YOSHLARDA AXLOQIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI	245-248
<i>Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich</i>	
SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI	249-252
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i>	
GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI	253-258
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i>	
YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI	259-264
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i>	
TARIXIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANТИRISH HAQIDAGI QARASHLAR	265-271
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Мамбетов Сердар Ахмедович</i>	
СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК	272-280

<i>Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi</i>	
PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS	281-288
<i>Rakhmonova Yulduz Khusanova</i>	
A HETEROGENEOUS LEGACY: EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS	289-295
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i>	
ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR	296-301
<i>Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna</i>	
ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT MASALASI	302-307
<i>Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida</i>	
MARGARET DRABBLENING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH	308-311
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i>	
A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS	312-315
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI	316-325
<i>Файзуллина Наргиза Дамировна</i>	
СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	326-331
<i>Sodiqova Dinora Ilhom qizi</i>	
ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY TRANSLATION	332-337
<i>Nazimova Himmatoj</i>	
"DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY ILDIZLARI T AHLILI	338-342
<i>Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista</i>	
SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR VA ILHOM MANBALARI	343-348
<i>Azizova Feruza Rejvaliyevna</i>	
TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI	349-353
<i>Agzamova Gulrux Ravshan qizi</i>	
XITOY TILIDAGI MUROJAAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI	354-358
<i>Sherkulov Sardor Komilovich</i>	
SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY: AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION	359-364
<i>Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim</i>	
DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA	365-368
<i>Bozorova Umida Qilichovna</i>	
BADIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI	369-372
<i>Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna</i>	
TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	373-376

Mamadiyorova Hilola

TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING

TA'SIRI 377-384

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Abdullayeva Nodira Odil qizi

OILAVIY (MAISHIY) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI 385-393

Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li

TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR 394-399

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING
PREDMETI VA USULLARI 400-407

Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ
ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ 408-413

Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li

BURHONUDDIN MARQ'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO
MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR 414-420

Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi

SUN'YI INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR):
MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI 421-432

Burxonov Shahzod Burxon o'g'li

XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI
TARTIBGA SOLISH 433-438

Avezov Umidjon Toshpulatovich

O'ZBEKİSTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH
BOSQICHLARI TAHLILI 439-446

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Максудов Улугбек Курбанович

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ
СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ
В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 447-453

Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza

SUN'YI INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 454-458

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

O'QUV FAOLIYATI TAMOYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmira

TALABALARDA TAHLILII FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
ASOSLARI 464-468

Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMI LI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS
FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 469-478

<i>Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich</i>	
GLOBALASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM	
YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	479-484
<i>Esboganova Baxit Daribayevna</i>	
UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSALARIDA O'QUVCHILARGA	
AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI	485-490
<i>Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira</i>	
TEXNOLOGIYA DARSALARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL	
ETISHNING AHAMIYATI	491-495
<i>Abdullaeva Dilgora Ulugbekovna</i>	
AKTUAL'NYIE PROBLEMY PREPODABANIIA PRAVOVYX DISCIPLIN	
W TEKHICHESKIH VUZAX	496-503
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i>	
STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA	
RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR	504-508
<i>Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston</i>	
SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS	
IN PEDAGOGICAL ACTIVITY	509-514
<i>Avazova Munisa</i>	
TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIIYASINI OSHIRISH:	
GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI	515-517
<i>Abdullayeva Mohigul, Fazliddinov Muhammadali</i>	
SUN'YI INTELLEKT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI	
ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH	518-521
<i>Urinova Dilbar Abdusamat qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI	
MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN	
ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	522-526
<i>Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV	
METODLARI	527-532
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART	
TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	533-539
<i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i>	
KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI	
RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY	
YONDASHUVLAR	540-543
<i>Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI	
SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI(PIRLS)GA	
TAYYORLASH USULLARI	544-547
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i>	
BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT	
TARBIYASINING O'RNI	548-552

<i>Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</i>	
KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI	553-562
<i>Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod</i>	
BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI	563-568

Received: 15 April 2025

Accepted: 1 May 2025

Published: 10 May 2025

Article / Original Paper

THEORETICAL FOUNDATIONS OF LIQUIDITY MANAGEMENT OF COMMERCIAL BANKS

Yangibaev Rustam Berdiyarovich

Researcher of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Abstract. This article presents a study of liquidity management of commercial banks and related theories. In addition, the article describes the scientific views of domestic and foreign scholars on bank liquidity management.

Keywords: liquidity, bank liquidity, current liquidity, liquidity management, liquidity of assets, liquidity of liabilities.

TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

Yangiboyev Rustam Berdiyarovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
milliy universiteti tадqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklari likvidlilagini boshqarish va unga oid nazariyalar tadqiqi berilgan. Shuningdek, banklarning likvidlilagini boshqarish bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: likvidlilik, banklarning likvidliligi, joriy likvidlilik, likvidlilikni boshqarish, aktivlar likvidliligi, majburiyatlar likvidlilik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N21>

Kirish. Respublikamiz iqtisodiyotini barqaror rivojlanish davrida tijorat banklarini yirik investitsiya institutlariga aylantirish va ularning iqtisodiyot subyektlarini moliyalashtirish jarayonidagi rolini oshirish, o'z navbatida tijorat banklarining likvidlilik darajasini yanada oshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Ya'ni, tijorat banklarining yetarli darajada likvidli bo'lishi mijozlar tomonidan bank xizmatlariga bo'lgan talab va ishonch ortib boradi.

Shuningdek, tijorat banklarining likvidlilik darajasini ta'minlash orqali ularning investitsion jarayonlardagi ishtirokini kuchaytirishni, shu bilan birga korxonalar tomonidan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirishi va tijorat banklari bu loyihalarda o'z kredit resurslari bilan ishtiroki muhimdir. Buning uchun tijorat banklari yetarli kapitalga ega, moliyaviy barqaror bo'lishi lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tijorat banklarining likvidlilagini ta'minlashning nazariy va uslubiy masalalari bir qator taniqli iqtisodchi olimlarning, shu jumladan, E. Dolan, J.Matuk, O.Lavrushin, K.Barlthrop, D.MakNoton, D.Polfreemanlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

AQShlik taniqli iqtisodchi olim Edvin Dj.Dolan tijorat banklarining likvidliligi asosan yuqori likvidli aktivlar hisobidan ta'minlanadi, degan fikrni ilgari suradi va ularning yuqori likvidli aktivlarini ikki guruhga ajratadi.

1. Kassali aktivlar.
2. Ikkilamchi zaxiralar [1],

E.Dolan kassali aktivlar tarkibiga tijorat banklarining kassasidagi naqd pullarni, ularning Markaziy bankdagi "Nostro" vakillik hisobraqamining qoldig'ini, tijorat banklarining boshqa tijorat banklaridagi "Nostro" vakillik hisobraqamlarining qoldiqlarini va inkassatsiya jarayonidagi pul mablag'larini kiritadi.

E. Dolan ikkilamchi zaxiralarning quyidagi to'rt shaklini ajratib ko'rsatdi:

- a) Hukumatning qimmatli qog'ozlari
- b) Boshqa banklarning depozit sertifikatlari
- v) Tijorat qimmatli qog'ozlari
- g) Federal fondlar.

K.Barl trop va D.MakNotonlar yuqori likvidli aktivlar tarkibiga kassali aktivlardan tashqari tijorat banklarining balansidagi Markaziy bankda qayta hisobga olinadigan tratalarni ham kiritadi [2].

Prof. O.I.Lavrushinining fikriga ko'ra, tijorat banklarining likvidli aktivlari o'z ichiga kassadagi naqd pullarni, tijorat banking Markaziy bankdagi "Nostro" vakillik hisobraqamining qoldig'ini, tijorat banking boshqa banklardagi "Nostro" vakillik hisobraqamlarining qoldiqlarini va yo'ltagi pullarni oladi [3].

Tijorat banklarining likvidliliga ta'sir etuvchi omillardan biri ularning faoliyatidagi valyuta riski hisoblanadi. O'z navbatida, valyuta riski muammosining chuqurlashishiga sabab bo'luvchi muhim omillardan biri banklarning ochiq valyuta pozitsiyalarini qisqartira olmasliklari hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotda banklarning valyuta pozitsiyalarini qisqartirish xususida xilma-xil nazariy qarashlar mavjud.

L.Krasavina o'zining ilmiy ishlarida valyuta pozitsiyasini boshqarish valyuta riskidan qochishning eng optimal usuli deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra, valyuta pozitsiyalarini tijorat banklari filiallarida ham hisoblash zarur. Buning sababi sifatida ayrim filiallarda valyuta operatsiyalari hajmining katta ekanligi tufayli valyuta riski darajasining yuqori ekanligi ko'rsatilgan [4].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.Vaxabov, T.Bobakulov, N.Jumaevlarning ilmiy ishlarida tijorat banklari valyuta pozitsiyalarini boshqarishning ayrim nazariy va amaliy jihatlari o'z ifodasini topgan [5]. Masalan, N.Jumaev tijorat banklarining bitta valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasiga nisbatan 5% darajasida limit belgilashning maqsadga muvofiq emasligini isbotlagan [6].

T.Bobakulov o'zining "Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash: muammolar va yechimlar" mavzusidagi monografiyasida tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarini Markaziy bankning valyuta siyosati doirasida tartibga solishni takomillashtirish masalasini tadqiq qilgan. Uning fikriga ko'ra, Markaziy bank tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarining miqdorini kunlik nazorat qilib turishi zarur [7].

T.Bobakulovning fikriga ko'ra, tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan belgilangan mazkur cheklovlar me'yoriy darajasini turli davlatlarda bir-biridan keskin

farqlanmasligining sababi shundaki, tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarini tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan metodikaning mualliflari bo'lib xalqaro Bazel qo'mitasining ekspertlari hisoblanadi. Respublikamiz bank amaliyotida qo'llanilayotgan cheklovlarining me'yoriy darajasi bilan G'arbiy Yevropa mamlakatlarda qo'llanilayotgan cheklovlarining me'yoriy darajalarida yaqinlik mavjud [8].

Muhokama. Fikrizimcha, E.Dolanning kassali aktivlarning yuqori darajadagi likvidliligi xususidagi fikri juda o'rini, ammo inkassatsiya jarayonidagi pul mablag'larini yuqori likvidli aktivlar sifatida e'tirof etish masalasida, tabaqaviy yondashuv bo'lishi kerak deb hisoblaymiz. Chunki, tijorat banki tomonidan qabul qilib olingan va boshqa tijorat banklariga to'lov uchun jo'natilgan pullik hujjatlar yuz foiz to'lanmaydi. Ularning ayrimlari hatto umuman to'lanmasligi mumkin. Shuning uchun, fikrimizcha, floutni yuqori likvidli aktiv sifatida baholash uchun pullik hujjatlar bo'yicha to'lovni amalga oshiradigan tijorat bankining to'lovga layoqatlilik reytingidan kelib chiqish zarur. Reyting ballari yuqori bo'lgan tijorat banklariga jo'natilgan pullik hujjatlar summasinigina yuqori likvidli aktiv sifatida baholash maqsadga muvofiq. Agar pullik hujjatlar bo'yicha to'lovni amalga oshiradigan bank xorijiy bank bo'lsa, u holda, Standard & Poor's, Moody's kabi taniqli reyting kompaniyalarning yuqori reyting ballariga ega bo'lgan tijorat banklariga jo'natilgan pullik hujjatlar summasini, ya'ni flout summasini yuqori likvidli aktivlar tarkibiga kiritish lozim.

Shuningdek, tijorat qimmatli qog'ozlariga qilingan bank investitsiyalarini yuqori likvidli aktivlar qatoriga kiritish mantiqan to'g'ri emas. Chunki tijorat qimmatli qog'ozlari aniq moddiy kafolatga ega emas, ayniqsa, respublikamiz sharoitida ko'plab korxonalarining qimmatli qog'ozlari bo'yicha to'lovsizlik muammozi mavjud.

Fikrimizcha, Markaziy bankda qayta hisobga olinadigan tratalarini yuqori likvidli aktivlar tarkibiga kiritish maqsadga muvofiqdir. Buning sababi shundaki, Markaziy bankning tratalar bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga shubha yo'q. Germaniya Federal bankining, AQSh Federal zaxira tizimining tratalarini qayta hisobga olish amaliyoti iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ularning mazkur masala xususidagi qarashlarini o'rganish natijasida tratalarini Markaziy bankda qayta hisobga olish borasida muammolarni va cheklovlarini mavjud emasligiga ishonch hosil qilish mumkin.

O.I.Lavrushin tijorat banklarining likvidli aktivlari depozitlarning nobarqaror qismi bo'yicha majburiyatlarni bajarish imkonini berishi kerak, deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra, har uchala shakldagi bank depozitlarining, ya'ni joriy depozitlar, jamg'arma depozitlari va muddatli depozitlarning barqaror qismi mavjud bo'lib, ular jami depozitlarning 75 foizidan kam bo'lмаган qismini tashkil etishi lozim. Likvidli aktivlar esa, jami depozitlarning 25 foizi miqdoridagi majburiyatlarni bajarishga yetadigan miqdorda mavjud bo'lishi lozim.

Fikrimizcha, tijorat banklarining likvidli aktivlarning miqdorini depozitlarning nobarqaror qismiga nisbatan emas, balki joriy depozitlar va jamg'arma depozitlariga nisbatan belgilash maqsadga muvofiqdir. Chunki aynan shu depozitlarning nobarqarorlik darajasi yuqori bo'lib, tijorat banklarida likvidlilik riskini doimiy tarzda yuzaga keltiradi. Fikrimizcha, depozitlarning barqaror qismining jami depozitlarning 75 foizi miqdorida shakllanishi rivojlangan xorijiy davlatlarning amaliyotiga xos bo'lgan holat hisoblanadi. Mazkur mamlakatlarda moliya bozorlarining rivojlanganligi, moliyaviy holati barqaror bo'lgan mijozlarning ko'pligi, Markaziy bank monetar siyosatining maqsadi va vazifalarini aniq hamda shaffofligi, korxonalarining soliq yukini mo'tadil darajaga keltirilganligi va boshqa omillar

xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimini barqaror darajasini ta'minlashga zamin yaratadi. Rivojlanayotgan davlatlarda esa, moliya bozorlari rivojlanmaganligi, Markaziy bankning monetar siyosatida noaniqliklarning mavjudligi, soliq siyosatini takomillashmaganligi va boshqa omillar xo'jalik subyektlarining moliyaviy holatiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Bu holatlar, pirovard natijada, xo'jalik subyektlarining pul oqimining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida tijorat banklaridagi talab qilib olinadigan depozitlar va jamg'arma depozitlari qoldiqlarining nobarqarorligi kuchayadi. Shu sababli, fikrimizcha, rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida talab qilib olinadigan depozitlar, yuridik shaxslarning jamg'arma depozitlarining qoldiqlariga nisbatan tijorat banklarining likvidli aktivlarini kamida 50 foiz miqdorida saqlab turishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Natijalar. Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy nobarqarorlik natijasida dunyoning qator mamlakatlarida ko'plab tijorat banklarining bankrot bo'lganligi yoki likvidlilik riskiga duchor bo'lib tang ahvolga tushib qolganligi, yirik miqdorlarda zarar ko'rganligi tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish amaliyotida jiddiy kamchiliklar va muammolarning mavjudligidan ma'lum.

Tijorat banklari faoliyatining zarar bilan yakunlanganligi ular qimmatli qog'ozlarining, shu jumladan, aksiyalarining bozor baholarining pasayishiga olib keladi. Natijada, banklarning kapitallashuv darajasining sezilarli darajada pasayishi yuz beradi. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklarining to'lovga qobillik darajasining pasayishiga olib keladi. Chunki tijorat banklarining to'lovga qobillik darajasini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri ular kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti hisoblanadi.

Dunyoga mashhur Xalqaro Bazel qo'mitasining talablari ham dastlab G'arbiy Yevropa mamlakatlarining bank amaliyotiga 1993 yilda qo'llanilgan va keyinchalik 150 dan ortiq mamlakatlarda tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish tizimining uslubiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Xalqaro bank amaliyotida eng mukammal hisoblangan Bazel standarti talablarini to'liq bajargan tijorat banklari ham nobarqarorlik natijasida bankrot yoqasiga kelib qolishdi. Bu esa, o'z navbatida, bank nazorati bo'yicha xalqaro Bazel standarti talablarini qayta qo'rib chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi [8].

Jahon iqtisodiyotida tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiyasi darajasiga bank nazorati jarayonida alohida e'tibor qaratishning zarurligi yaqqol namoyon bo'ladi. Afsuski, taraqqiy etgan mamlakatlarda bank nazorati tizimida tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasini ta'minlashga ikkinchi darajali vazifa sifatida qaraladi. Ushbu masala ko'proq tijorat banki boshqaruvining vakolati va javobgarligi doirasidagi masala sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sababli, fikrimizcha, tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish tizimida banklar kredit portfelining diversifikatsiya darajasini nazorat qilish masalasi ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan vazifalardan biri sifatida qaralishi lozim.

Taraqqiy etgan mamlakatlar hamda qator o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatdiki, markaziy banklar mamlakatdagi hamma banklarga qayta moliyalash kreditlari berish yo'li bilan ularning likvidliliginini ta'minlash borasida yordam ko'rsata olmaydi. Chunki Markaziy bankning qayta moliyalash kreditlari berish imkoniyati cheklangan. Shuning uchun ham tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish yo'li bilan ularning bank faoliyati salbiy ta'siriga nisbatan chidamliliginini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Xorijlik qator iqtisodchi olimlar tijorat banklarining likvidliliginini ta'minlashda asosiy e'tiborni kassali aktivlarga qaratadilar va uning tarkibiga tijorat banklarining kassasidagi naqd pullarni, ularning Markaziy bankdagi "Nostro" vakillik hisobraqamining

qoldig'ini, tijorat banklarining boshqa tijorat banklaridagi "Nostro" vakillik hisobraqamlarining qoldiqlarini va inkassatsiya jarayonidagi pul mablag'larini kiritadi. Ammo ikkinchi guruh iqtisodchi olimlar yuqori likvidli aktivlar tarkibiga cassali aktivlardan tashqari tijorat banklarining balansidagi Markaziy bankda qayta hisobga olinadigan tratalarni ham kiritadi.

Fikrimizcha, xorijlik iqtisodchi olimlarning cassali aktivlarning yuqori darajadagi likvidliliqi xususidagi fikri o'rini, ammo inkassatsiya jarayonidagi pul mablag'larini yuqori likvidli aktivlar sifatida e'tirof etish masalasida, tabaqaviy yondashuv bo'lishi kerak, deb hisoblaymiz. Chunki, tijorat banki tomonidan qabul qilib olingan va boshqa tijorat banklariga to'lov uchun jo'natilgan pullik hujjatlar to'liq to'lab berilmaydi, ularning ayrimlari hatto umuman to'lanmasligi mumkin. Shu sababli, fikrimizcha, floutni yuqori likvidli aktiv sifatida baholash uchun pullik hujjatlar bo'yicha to'lovnini amalga oshiradigan tijorat bankining to'lovga layoqatlilik reytingiga asoslanishi lozim.

Rossiyalik iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra, tijorat banklarining likvidli aktivlari depozitlarning nobarqaror qismi bo'yicha majburiyatlarni bajarish imkonini berishi kerak. Ya'ni, har uchala shakldagi bank depozitlarining, ya'ni joriy depozitlar, jamg'arma depozitlari va muddatli depozitlarning barqaror qismi mavjud bo'lib, ular jami depozitlarning 75 foizidan kam bo'lмаган qismini tashkil etishi lozim. Likvidli aktivlar esa, jami depozitlarning 25 foizi miqdoridagi majburiyatlarni bajarishga yetadigan miqdorda mavjud bo'lishi lozim. Fikrimizcha, tijorat banklarining likvidli aktivlarining miqdorini depozitlarning nobarqaror qismiga nisbatan emas, balki joriy depozitlar va jamg'arma depozitlariga nisbatan belgilash maqsadga muvofiqdir. Buning sababi shundaki, aynan shu depozitlarning beqarorlik darajasi yuqori bo'lib, tijorat banklarida likvidlilik riskini doimiy tarzda yuzaga keltiradi. Fikrimizcha, depozitlarning barqaror qismining jami depozitlarning 75 foizi miqdorida shakllanishi rivojlangan xorijiy davlatlarning amaliyotiga xos bo'lган holat hisoblanadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida, tijorat banklarining likvidliligini baholashda, asosan, kapitalning yetarlilik koeffitsiyentlari va joriy likvidlilik koeffitsiyenti ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Kapitalning yetarlilik koeffitsiyentlari tijorat bankining umumiylik vidlilikini ifodalasa, joriy likvidlilik koeffitsiyenti banklarning joriy likvidlilikini aks ettiradi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirish va uning yetarliliginini ta'minlashda to'liq Xalqaro Bazel standartining talablaridan foydalaniladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Эдвин Дж. Долан и др. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. – Спб.: "Санкт-Петербург Оркестр", 1994. – С. 90-93.
2. Барлтроп К., МакНотон Д. Банковские учреждения в развивающихся рынках.- Всемирный банк, Вашингтон, 1993.- С. 53-54.
3. Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка. –М.: Юрайт, 2023.- С.321.
4. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: учебник для вузов / ответственный редактор Л. Н. Красавина. — 5-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2025. — 542 с.
5. Вахабов А.В. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. В 2-х т. – Ташкент: Университет, 2020. – 538 с.
6. Жумаев Н.Х., Кудайбергенов Ж.Ш. Международные финансовые отношения. Валютный курс и пути их регулирования. –Ташкент: Iqtisod-Moliya, 2006. – 132 с.

7. Бобакулов Т.И. Миллий валютанинг барқарорлигини таъминлаш: муаммолар ва ечимлар. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2007. – 184 б.
8. Basel Committee on banking suqpervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel III, 2021.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).